

INGLIZ TILINI CHET TILI SIFATIDA O'RGANAYOTGAN YOSH BOLALARNING O'QISH VA YOZISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Anorboyeva Kamola Mamarqab qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

1-kurs tayanch doktoranti

kamola_anorboyeva@uzswlu.uz

+998909606577

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv davrida kichik yoshdagi o'quvchilarda ingliz tili savodxonligini shakllantirishning metodik asoslari tahlil qilinadi. O'qish va yozish kompetensiyalarini rivojlantirishda *Phonics* va *Sight Reading* usullarining o'rni, shuningdek, multisensor yondashuvning ahamiyatini yoritib berilgan. O'zbekiston ta'lim tizimidagi kichik yoshdagi ingliz tili o'rganuvchilarining savodxonligini bilan bog'liq mavjud muammolar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: savodxonlik, phonics, sight reading, akademik shok,

Globallashgan zamonamizda ingliz tili eng asosiy muloqot vositasiga aylanganligi bois, ushbu tilni yoshlikdan o'rganishga talab ham brogan sari ortib bormoqda. Bu til o'rganish jarayonini tashkil etish uchun o'qish va yozish kompetensiyasini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o'qish va yozish nafaqat savodxonlikning asosiy ko'nikmalari, balki aqliy rivojlanish, tanqidiy fikrlash va akademik muvaffaqiyatning kuchli vositasi hisoblanadi (Rachur, 2024). Shu sababli ingliz tili o'qituvchilari mana shu ko'nikmalarni samarali tarzda o'qitish borasida ko'p izlanishlar olib borishadi.

Yosh bolalarda o'qish va yozish kompetensiyasini shakllantirishda doimiy bahs-munozaralar mavjud. Avvalo, o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga oid metodlarga nazar tashlasak eng muhim ikki asosiy usul oldinga chiqadi ular: Phonics (tovushli usul) va Sight Reading (butun so'zni tanish usuli).

Phonics metodi (Akustik yoki tovushli usul) bolalarga harflar va ularning tovushlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgatishga asoslanadi. Bu usulda bola so'zlarni alohida fonemalarga ajratishni va ularni birlashtirib o'qishni o'rganadi. (National Reading Panel, 2020). Bu esa bolaning lug'at boyligi ortishi bilan o'qish tezligini ham oshiradi. Lekin, ingliz tili fonetik jihatdan murakkab til bo'lganligi va unda qoidalarga bo'ysunmaydigan (irregular) so'zlar juda ko'pligini hisobga oladigan bo'lsak, masalan, "knight" yoki "through" kabi so'zlarni faqat tovushlar orqali o'qish bolani chalkashtirib yuborishi mumkin.

Sight Reading metodi (Vizual usul). Bu usul bolalardan so'zlarni tovushga ajratmasdan, ularning umumiy shaklini xotirada eslab qolishni talab qiladi. Ko'p ishlatiladigan "the", "are", "have" kabi so'zlar (Dolch words) odatda shu usulda o'rgatiladi. Bu metod ayniqsa vizual xotirasi kuchli bolalar uchun samarali bo'ladi (Erhri, 2022). Agarda bola faqat shu usulga tayanib qolsa, u yangi va murakkab so'zlarga duch kelganda ularni o'qiy olmay qiynaladi. Bu esa savodxonlikning poydevorini zaiflashtirishi mumkin.

Yozish kompetensiyasini shakllantirishda metodik yondashuvlar. Yozish kompetensiyasi odatda shunchaki harflarni chizish emas, balki fikrni qog'ozda ifodalash jarayonini bildiradi. Yosh o'quvchilarda bu ko'nikmani rivojlantirish uchun ayni damda eng mashhur va samarali hisoblanayotgan *Multisensory approach* (ko'p sezgi a'zolari orqali o'qitish) metodlari tavsiya etiladi. Bu usul orqali bolalarga harflarni qumga yozdirish, plastilindan yasatish yoki havoda chizdirish orqali ularning kinestetik xotirasini ishga solish

mumkin. Bu usul kognitiv yuklamani kamaytiradi va yozishga bo'lgan qiziqishni oshiradi (Birsh, 2018).

O'zbekiston ta'lim tizimidagi ingliz tilini o'rganayotgan yosh bolalarning hozirgi holatini tahlil qiladigan bo'lsak, bog'cha yoshidagi va umumta'lim maktablarining 1-2-sinf darsliklari (masalan, "Kids' English") asosan Game-based teaching (o'yin orqali o'qitish) va Total Physical Response (jismoniy harakatlar, ifodalar orqali o'rganish) metodlariga tayanadi. Zamonaviy o'qitish dasturlarida asosiy e'tibor o'quvchining tinglab tushunish (listening) va gapirish (speaking) ko'nikmalariga qaratilganligini hisobga olsak, haqiqatda yoshdagi bolalar uchun amaldagi o'qitish usullari to'g'ri strategiya bo'lishi mumkin, biroq bu yerda bir qator muammolarni e'tibordan chetda qoldirmasligimiz kk. Ingliz tilini o'qitish sohasidagi mutaxassislar quyidagi muammolarni eng dolzarb deb takidlashmoqda:

- o 1-2-sinflarda o'qish va yozishga deyarli e'tibor berilmasligi, 3-sinfga o'tganda murakkab matnlar va yozma topshiriqlarni uchratgan o'quvchida "akademik shok"ni keltirib chiqarmoqda.

- o Grafema-fonema bog'liqligining tushuna olmaslik ya'ni bolalar so'zlarni aytishni bilsalar-da, ularning yozma shaklini taniy olmaydilar. Bu esa kelajakda imlo xatolarining ko'payishiga sabab bo'ladi.

- o Darsliklar dizayni: Ko'p hollarda darsliklar faqat rasmlar va qo'shiqlardan iborat bo'lganligi sabab, harflarni tanish va yozish mashqlari chetda qolib ketmoqda.

Kichik yoshdagi o'quvchilar kognitiv, hissiy va lingvistik rivojlanish jihatidan katta yoshdagi o'quvchilardan butunlay darajada farq qiladi. Catherine Snow va boshqa olimlarning fikriga ko'ra, ingliz tilini chet tili sifatida o'rganayotgan bolalarda o'qish va yozish ko'nikmalarining rivojlanishi boy til muhiti, doimiy muloqot, va qo'llab-quvvatlovchi ta'lim muhitiga bevosita bog'liq. Agar bolalar ingliz tilini eshitib, gapirib mashq qilsa va o'qituvchi tomonidan rag'batlantirilsa, ularning savodxonligi samarali rivojlanadi (Snow, Burns, & Griffin, 1998).

Linnea Ehri (2005) tadqiqoti fonikani o'qitishning muhimligini ta'kidlaydi, chunki u bolalarga og'zaki tovushlarni yozma belgilar bilan bog'lashga yordam beradi. Fonetikaga asoslangan tizimli faoliyat jarayonida o'quvchilar asta-sekin so'zlarni avtomatik ravishda tanib olish qobiliyatini rivojlantiradilar, bu esa o'qish va tushunishning asosiy shartidir. Bundan tashqari, yoshga mos, vizual jihatdan qo'llab-quvvatlanadigan matnlarga murojaat qilish motivatsiyani kuchaytiradi va ma'no yaratishni qo'llab-quvvatlaydi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda yozma nutq kompetensiyasi asta-sekin rivojlanadi va o'qish ko'nikmalari bilan o'zaro bog'liq bo'ladi. Dastlabki yozuv ko'pincha rasm chizish, harflarni ko'chirish va oddiy so'zlar yoki jumalarni yozishdan boshlanadi. Jeyms Pol Gi (2015) fikriga ko'ra, yozishni shunchaki mexanik ko'nikma emas, balki ijtimoiy va kommunikativ amaliyot sifatida ko'rish kerak. Bolalar g'oyalarni oddiy yozma shakllar – keyinroq qisqa tavsiflar, izohlar yoki shaxsiy hikoyalar orqali ifodalashga rag'batlantirilsa, ular yozish ko'nikmasining muloqotga aloqador maqsadini tushuna boshlaydilar.

William Grabe va Robert Kaplan (1996) ta'kidlaganidek, o'qish va yozishga o'rgatish birgalikda olib borilganda samaraliroq bo'ladi. Kichik yoshdagi bolalar rasmlar, qisqa so'zlar va sodda jumlar orqali tilni o'rganadi. Masalan, bola qisqa matn yoki rasimli hikoyani o'qiydi, so'ng bir so'z yozadi, harfni ko'chiradi yoki oddiy jumlaning to'ldiradi. Bunday mashg'ulotlar bolaga harf–tovush bog'lanishini, yangi so'zlarni va yozuv shaklini yaxshiroq

o'zlashtirishga yordam beradi. Shuning uchun, o'qish va yozishni birlashtirgan yaxlit yondashuv maktabgacha va boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonligini samarali rivojlantiradi.

O'zbekiston misolidagi muammolarga umumiy yechim sifatida, ingliz tilini chet tili sifatida o'rganayotgan yosh bolalarda o'qish va yozish kompetensiyasini shakllantirish uchun "muvozanatlashtirilgan savodxonlik" (Balanced Literacy) modelini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Ya'ni, o'yin asosidagi darslarga kuniga 10-15 daqiqa davomida Phonics mashqlarini kiritish lozim. Faqatgina o'yin bilan cheklanib qolish bolaning kelajakdagi akademik savodxonligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin (Smith, 2023).

Xulosa qilib aytganda, kichik yoshdagi o'quvchilarda o'qish va yozish kompetensiyasini shakllantirish muhim hisoblanadi shu bilan birga ularning yoshiga mos, qiziqarli va to'g'ri tashkil etilgan o'rgatish jarayonini talab qiladi. O'qituvchilar fonetika, lug'atni rivojlantirish, samarali o'qish va kommunikativ yozma topshiriqlarga e'tibor qaratib, tilni o'rganish uchun yuqori imkoniyatlar yaratishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Birsh, J. R. (2018). *Multisensory Teaching of Basic Language Skills*. Brookes Publishing.
2. Ehri, L. C. (2005). Learning to Read Words: Theory, Findings, and Issues. *Scientific Studies of Reading*.
3. Ehri, L. C. (2022). *Orthographic Mapping in the Acquisition of Sight Word Reading*.
4. Gee, J. P. (2015). *Social Linguistics and Literacies: Ideology in Discourses*. Routledge.
5. Grabe, W., & Kaplan, R. B. (1996). *Theory and Practice of Writing: An Applied Linguistic Perspective*. Longman.
6. National Reading Panel. (2020). *Teaching Children to Read: An Evidence-Based Assessment of the Scientific Research Literature on Reading and its Implications for Reading Instruction*.
7. Rachur, S. (2024). *Cognitive Development and Literacy in Early Childhood*.
8. Rachuri, R. (n.d.). *Reading Books: An Effective Tool For Enhancing Critical Thinking Skills Among English Language Learners*.
9. Smith, J. (2023). *English Language Teaching in Central Asia: Challenges and Prospects*.
10. Snow, C. E., Burns, M. S., & Griffin, P. (1998). *Preventing Reading Difficulties in Young Children*. National Academy Press.